

**ISTIQLOL YILLARIDA MILLIY MADANIYAT VA BADIY ADABIYOTNING
ILMIY TADQIQOTLARDA AKS ETISHI****Mahmudov Elmurod Zafarjon o‘g‘li***University of Business and Science magistranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ma‘naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlar hamda ularning xorijiy tarixshunoslikda yoritilishi tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy madaniyat, adabiyot, san‘at, musiqa va madaniy merosni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy olimlarning O‘zbekistondagi ma‘naviy-madaniy jarayonlarga bergan baholari, mavjud yondashuvlar va ilmiy qarashlar tahlil etilgan. Maqolada mustaqillik davri madaniy siyosatining natijalari hamda ularning tarixshunoslikdagi aks etish xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma‘naviy-madaniy islohotlar, madaniyat siyosati, xorijiy tarixshunoslik, milliy madaniyat, madaniy meros, tarixiy xotira, ma‘naviyat, san‘at, adabiyot, O‘zbekiston.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы реформы, осуществлённые в духовно-культурной сфере Республики Узбекистан в годы независимости, а также их освещение в зарубежной историографии. В исследовании рассмотрены основные направления государственной политики, направленной на развитие национальной культуры, литературы, искусства, музыки и сохранение культурного наследия. Также проанализированы оценки зарубежных учёных духовно-культурных процессов в Узбекистане, существующие подходы и научные взгляды. В статье раскрываются результаты культурной политики периода независимости и особенности их отражения в историографии.*

Ключевые слова: *духовно-культурные реформы, культурная политика, зарубежная историография, национальная культура, культурное наследие, историческая память, духовность, искусство, литература, Узбекистан.*

Abstract: *This article analyzes the reforms implemented in the spiritual and cultural sphere of the Republic of Uzbekistan during the years of independence and their coverage in foreign historiography. The study examines the main directions of state policy aimed at the development of national culture, literature, art, music, and cultural heritage. It also explores the assessments of foreign scholars regarding the spiritual and cultural processes taking place in Uzbekistan, as well as existing approaches and academic perspectives. The article highlights the outcomes of cultural policy in the independence period and the specific features of their reflection in historiographical studies.*

Keywords: *spiritual and cultural reforms, cultural policy, foreign historiography, national culture, cultural heritage, historical memory, spirituality, art, literature, Uzbekistan.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat hayotining barcha sohalarida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ma’naviy-madaniy sohada yuz bergan o‘zgarishlar jamiyatning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligini anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va rivojlantirish jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Avvalgi davrda madaniy jarayonlar asosan mafkuraviy yondashuvlar asosida baholangan bo‘lsa, mustaqillik yillarida ularga milliy manfaatlar, tarixiy haqiqat va umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan yondashish imkoniyati yaratildi. Natijada ma’naviy-madaniy hayotda amalga oshirilgan islohotlar va ularning mazmun-mohiyati ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Mustaqillik yillarida ma’naviy-madaniy sohani rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati tarixiy-madaniy merosni tiklash, milliy qadriyatlarni asrash, madaniyat va san’atni qo‘llab-quvvatlash hamda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Shu bilan birga, mamlakatda amalga oshirilayotgan mazkur islohotlar nafaqat mahalliy tadqiqotchilar, balki xorijiy olimlar va ekspertlarning ham diqqat markazida bo‘ldi. Xorijiy tarixshunoslikda O‘zbekistondagi ma’naviy-madaniy jarayonlar, madaniyat siyosati, tarixiy merosni saqlash va milliy o‘zlikni mustahkamlash masalalari turli nuqtai nazarlardan yoritildi.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni, natijalari va ularning xorijiy tarixshunoslikda aks etishini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalaning tahlili mamlakatda olib borilgan islohotlarning xalqaro ilmiy doiralarda qanday baholanganini aniqlash, mavjud yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish hamda ushbu yo‘nalishdagi tarixshunoslik tadqiqotlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ma’naviy-madaniy hayotning barcha yo‘nalishlari qatori musiqa san’ati ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Sobiq ittifoq davrida musiqa san’atining rivojlanishi ko‘p jihatdan mafkuraviy talablar bilan bog‘liq bo‘lib, milliy ijrochilik an‘analarining ayrim jihatlari rasmiy estetik mezonlarga moslashtirilgan edi. Mustaqillik yillarida esa milliy musiqa merosiga yangicha yondashuv shakllandi. Maqom san’ati, baxshichilik, katta ashula, folklor-etnografik ijrochilik hamda an’anaviy cholg‘u san’ati milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etildi. Natijada musiqa san’ati xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va milliy o‘zligini ifodalovchi muhim madaniy hodisa sifatida talqin qilina boshlandi. Shu bois mustaqillik davri tadqiqotlarida

nafaqat amaliy ijrochilik jarayonlari, balki ularning tarixiy manbalari, hududiy xususiyatlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

1990-yillarning ikkinchi yarmida madaniyat va san’at sohasida amalga oshirilgan islohotlar milliy musiqa va raqs san’ati rivojiga yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu davrda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar san’at ta’limini takomillashtirish, ijodiy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash hamda madaniy muassasalarning faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qildi. Xususan, milliy raqs va xoreografiya san’atini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar, shuningdek, “O‘zbeknavo” hamda “O‘zbekraqs” kabi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi. Tarixshunoslik nuqtai nazaridan mazkur hujjatlar mustaqil O‘zbekistonning madaniyat siyosatini aks ettiruvchi muhim manbalar sifatida baholanadi. Ular davlat tomonidan madaniy merosni asrash, san’at ta’limini rivojlantirish va milliy ijodiy maktablarni qo‘llab-quvvatlash strategik vazifa sifatida belgilanganligini ko‘rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatda turli ko‘rik-tanlovlar, festivallar va ijodiy anjumanlar tashkil etilishi milliy san’atning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Milliy cholg‘u ijrochilari, folklor jamoalari, askiyachilar, qiziqchilar, masxarabozlar hamda xalq og‘zaki ijodining boshqa namoyandalari ishtirokidagi tadbirlar an’anaviy san’at turlarining ommalashuviga xizmat qildi. Bunday madaniy loyihalar nafaqat ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish, balki xalqning boy madaniy merosini saqlab qolish va yosh avlodga yetkazish vositasi sifatida ham muhim o‘rin tutdi. Tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu jarayonlar milliy ijodiy an’analarini qayta tiklash va ularni zamonaviy madaniy makonga integratsiya qilishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida raqs san’ati ham yangi mazmun va shakllar bilan boyidi. Professional raqs ansambllari faoliyatining kengayishi, zamonaviy sahna talablari asosida yaratilgan xoreografik kompozitsiyalar, teatrlashtirilgan tomoshalar hamda maydon raqslari milliy raqs san’ati rivojining yangi bosqichini boshlab berdi. O‘zbek raqsining xalqaro festivallar, madaniy tadbirlar va sport musobaqalarida keng namoyish etilishi uning milliy madaniyat ramzlaridan biriga aylanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, raqs san’atini o‘rganishda faqat zamonaviy yutuqlarni emas, balki uning tarixiy taraqqiyoti, hududiy maktablari, sahnalashtirish jarayonlari va turli davrlardagi rivojlanish xususiyatlarini ham kompleks tahlil qilish zarurdir.

O‘zbekiston san’ati tarixi va uning davrlashtirish masalalari san’atshunos olimlar tomonidan turli davrlarda tadqiq etilgan. Mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy ishlarda san’at tarixiga yangicha yondashuvlar shakllanib, uning sivilizatsion taraqqiyot, madaniy xotira va badiiy tafakkur bilan bog‘liq jihatlari kengroq yoritila boshlandi. Xususan, san’atni faqat alohida ijodkorlar yoki asarlar tarixi sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy rivojlanishini

aks ettiruvchi murakkab tarixiy-madaniy hodisa sifatida talqin etishga intilish kuchaydi. Shu bilan birga, siyosiy o‘zgarishlar va badiiy jarayonlar har doim ham bir vaqtning o‘zida kechmasligi, ayrim ijodiy maktablar va estetik an‘analar yangi tarixiy sharoitda ham davom etishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda alohida qayd etilmoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma‘naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlar xorijiy tadqiqotchilar e‘tiboridan ham chetda qolmadi. Ayniqsa, milliy madaniy merosni tiklash, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, madaniyat va san‘at muassasalari faoliyatini takomillashtirish, milliy an‘analarni asrab-avaylash hamda xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish masalalari ko‘plab xorijiy ilmiy tadqiqotlarda yoritildi. Ushbu ishlarda O‘zbekistonda olib borilgan madaniy siyosatning mazmuni va natijalari turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

Xorijiy tarixshunoslikda ma‘naviy-madaniy jarayonlarni o‘rganishda asosan madaniy modernizatsiya, milliy identiklik, tarixiy xotira va madaniy merosni saqlash kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan. Ayrim tadqiqotchilar O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin amalga oshirilgan madaniy islohotlarni milliy davlatchilikni mustahkamlash omili sifatida baholagan bo‘lsalar, boshqalari ularni globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlashning muhim vositasi sifatida talqin qilganlar.

Shu bilan birga, xorijiy mualliflar tomonidan bildirilgan qarashlar va xulosalar har doim ham bir xil emas. Ularning ayrimlarida ma‘naviy-madaniy islohotlarning ijobiy natijalari keng yoritilgan bo‘lsa, ayrim tadqiqotlarda mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalarga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Shu sababli O‘zbekistonda ma‘naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlarning xorijiy tarixshunoslikdagi talqinlarini qiyosiy tahlil qilish mazkur masalaning ilmiy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganilishiga xizmat qiladi.

Musiq va raqs san‘ati bilan bir qatorda, mustaqillik yillarida milliy adabiyot ham ma‘naviy-madaniy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etildi. Bu davrda sovet mafkurasi ta‘sirida biryoqlama talqin qilingan ko‘plab adabiy meros namunalari va ijodkorlar faoliyati yangicha ilmiy yondashuvlar asosida qayta baholandi. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi badiiy asarlar, milliy davlatchilik g‘oyasi, buyuk ajdodlar siymosi, xalq qahramonlari va madaniy meros bilan bog‘liq roman hamda qissalar jamiyatning tarixiy xotirasini shakllantirishda muhim vosita sifatida qarala boshlandi. Shu bilan birga, tarixshunoslikda badiiy asarlarni tarixiy voqelikning aynan nusxasi sifatida emas, balki muayyan davrning tarixiy tasavvurlari, mafkuraviy qarashlari va ijtimoiy kayfiyatlarini aks ettiruvchi manba sifatida tahlil qilish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning keyingi bosqichlarida ma‘naviy-madaniy sohani rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan madaniyat, adabiyot, teatr, kino, musiqa va san‘atning boshqa yo‘nalishlarini

qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator dastur va loyihalar amalga oshirildi. Ijodkor ziyolilar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda yosh avlodni ma‘naviy barkamol etib tarbiyalash, ularning estetik didini yuksaltirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa ma‘naviy-madaniy sohada olib borilayotgan islohotlarning izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, madaniyat va san‘atni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari teatr, musiqa, tasviriy san‘at, xoreografiya, xalq amaliy san‘ati hamda ijodiy jamoalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bunday chora-tadbirlar nafaqat madaniy muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, balki aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, ijodkorlarning faoliyatini rag‘batlantirish va milliy madaniy merosni asrab-avaylashga ham xizmat qildi. Shu jihatdan mazkur dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekistonning ma‘naviy-madaniy taraqqiyot yo‘lini o‘rganishda muhim tarixiy manba vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida ma‘naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlar milliy madaniyat, adabiyot va san‘at rivojining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu jarayonlar nafaqat mamlakat ichida, balki xorijiy ilmiy doiralarda ham katta qiziqish uyg‘otdi. Natijada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma‘naviy-madaniy yangilanishlar, milliy merosni tiklash va madaniy siyosat masalalari xorijiy tarixshunoslikda ham o‘z aksini topdi. Shu bois mazkur islohotlarning xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qay tarzda baholanganini o‘rganish va tahlil qilish mavzuning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarning muhim jihatlaridan biri milliy madaniyatning mustaqil ilmiy hodisa sifatida talqin qilina boshlaganidadir. Endilikda madaniyat faqat ma‘lum bir siyosiy tizimning tarkibiy qismi sifatida emas, balki o‘zining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, ichki qonuniyatlari va ijtimoiy ahamiyatiga ega bo‘lgan murakkab jarayon sifatida o‘rganilmoqda. Shu asosda milliy adabiyot, musiqa, teatr, raqs san‘ati, tasviriy san‘at, xalq amaliy ijodi va hunarmandchilik kabi yo‘nalishlar yagona ma‘naviy-madaniy makonning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida baholandi. Bunday yondashuv O‘zbekiston madaniyati tarixini yangicha metodologik asoslarda tadqiq etish imkonini yaratdi.

Umuman olganda, mustaqillik davrida ma‘naviy-madaniy sohani o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar bir necha ustuvor yo‘nalishlarda rivojlandi. Jumladan, milliy madaniyatning nazariy asoslarini takomillashtirish, milliy qadriyatlar va an‘analarni qayta baholash, adabiyot va san‘atga nisbatan yangicha yondashuvlarni shakllantirish, madaniyat muassasalari faoliyatini rivojlantirish hamda madaniyat siyosatining huquqiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlash masalalari tadqiqotlarning markaziy mavzularidan bo‘ldi. Bu

jarayonlar O‘zbekistonda ma’naviy-madaniy taraqqiyotning yangi bosqichini shakllantirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar hali to‘liq yakunlangan deb bo‘lmaydi. Xususan, madaniy siyosatning amaliy natijalari, hududiy madaniy maktablarning rivojlanish xususiyatlari, madaniy merosni asrash va undan foydalanish masalalari, globallashtirish sharoitida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi hamda tarixiy xotiraning shakllanish jarayonlari yanada chuqurroq ilmiy tahlilni talab etadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda ma’naviy-madaniy sohada amalga oshirilgan islohotlarning xorijiy tarixshunoslikda qanday aks etgani, ularga berilgan baholar va mavjud ilmiy yondashuvlarni o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur masalaning tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi nafaqat madaniyat tarixi, balki manbashunoslik va tarixiy tafakkur rivojini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Утанова У.А. Мустақил Ўзбекистонда халқ маданиятининг равнақи. (фалсафий-маданий ёндашув).–Т.: 2008. – Б.154.
2. Тўхлиев Б. Мустақиллик ва адабий таълим: ютуқ ва амалдаги вазифалар. // Тил ва адабиёт таълими. 2014. № 9. – Б. 8-10.
3. Усманова Г. Мустақиллик йилларида ўзбек рақс санъати тарихини даврлаштириш масаласи ва хореография санъатини ўрганишда манбаларнинг аҳамияти // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 1 / March 2022. – Б.450-460.
4. Tursunboyev S. O‘zbek teatri tarixi. –Т.:2007. – В.321.
5. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M.T., Muxtorov I.A. O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – Т.:2003.
6. Istiqlol va milliy teatr.Majmua–Т.:2002. – В.468.